



KORRUPSIYA-ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGIGA TAHDID

Normaxmadov Nizomiddin Abdusalimovich

Jinoyat ishlari bo'yicha Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar sudi raisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19330300>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 21-mart 2026 yil
Ma'qullandi: 25-mart 2026 yil
Nashr qilindi: 30-mart 2026 yil

KEYWORDS

“Korrupsiya” so’zi lotincha “corruptio” so’zidan kelib chiqqan bo’lib, “buzilish”, “to’g’ri yo’ldan og’ish”, “xo’jalik yoki ijtimoiy normalarning buzilishi” ma’nolarini anglatadi.

ABSTRACT

Korrupsiya dunyo miqyosidagi har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga, davlat boshqaruvi samaradorligiga hamda adolat va qonun ustuvorligiga, qolaversa aholining ijtimoiy farovonligiga salbiy ta’sir qiladi. Bu illat, uning oqibati esa huquqiy ong va adolat tamoyillariga putur yetkazishi, jamiyatda ishonchsizlik muhitini shakllantirishi shubhasiz. Maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishning ahamiyati, uni bartaraf etish, korrupsiyani oldini olishda jamiyat har bir a’zosining bevosita ishtiroki tamoyili muhim ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratining o’rni va bunday nazoratni amalga oshirishning qonunchilikdagi mezonlari, qolaversa adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashdagi tahdidlar xususida so’z yuritiladi.

Korrupsiya – davlat taraqqiyotiga to’siq bo’ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdidir.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat organlari bilan bir qatorda, fuqarolik jamiyati institutlarini ishtirokiga bo’lgan zarurat barcha jabhalarda namoyon bo’lmoqda.

Korrupsiyaga qarshi qaratilgan jamoatchilik nazoratining yangi institusiyaviy tuzilmalarni rivojlantirish hamda tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarini yaratish demokratik davlatlar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Avvalo, korrupsiya sud tizimida ham adolat tamoyilini buzadi. Ikkinchidan, u qonun ustuvorligini zaiflashtiradi. Agar mansabdor shaxslar qonunni buzib, javobgarlikdan qocha olsa, oddiy fuqarolarda ham qonunga ishonch pasayadi. Natijada “qonun hamma uchun teng” degan prinsip amalda ishlamay qoladi. Uchinchidan, korrupsiya davlat institutlariga ishonchni yo’qotadi. Sud yoki boshqa organlar “adolatli emas” degan tasavvur paydo bo’lsa, bu jamiyat barqarorligiga salbiy ta’sir qiladi.

Zero, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Konstitusiyamiz qabul qilinganining 27 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimidagi

ma'ruzasida quyidagilarni ta'kidladilar, "Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga erishishda jamoatchilik nazoratidan ko'ra samarali vosita yo'q. Haqiqatan ham, xalqimiz qonun buzilishiga qarshi qattiq turmas ekan, davlat idoralari, mansabdor shaxslar qanchalik urinmasin, qonun ustuvorligini ta'minlash qiyin bo'ladi".¹

Bugungi kunda, odil sudlov jarayonini ham "raqamli sud" konsepsiyasi asosida tashkil etishni boshlanishi, bu borada ham raqamlashtirish orqali inson huquqlari himoyasini kuchaytirish, jinoyat haqidagi arizani qabul qilishdan boshlab, ishni sudga o'tkazishgacha bo'lgan bosqichlarga sun'iy intellekt texnologiyalari joriy etilishi va inson omilini qisqartirish borasida muhim qadam bo'lib hisoblanadi.

Yurtimizda ham xalqaro tan olingan "Xabeas korpus" institutini qo'llashning muhim bosqichi bu- odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilik ishtiroki va rolini oshirib borishda namoyon bo'lmoqda.

Endi jinoyat protsessiga ingliz huquqidagi davlatlarda ijobiy natija bergan "xalq vakillari hay'ati" instituti bosqichma-bosqich joriy etilishi, bunda o'ta og'ir va jamiyatda shov-shuvga sabab bo'layotgan jinoyatlar jamoatchilik vakillari ishtirokida ko'rib chiqilishi sud hukmining yanada adolatli bo'lishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Eng muhimi, davlat xizmatlarini, shu jumladan sud tizimini ham inson omilisiz, korrupsiya va ortiqcha byurokratiyadan xoli tizimga aylanishi borasida bir qator davlat siyosati darajasidagi islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Prezidentimiz Shavkat Miromonovichning ta'biri bilan aytganda, "korrupsiya – davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid.

Korrupsiyaga yo'l qo'yish esa – islohotlarimizga xiyonatdir. Bu illatga qarshi kurashish bo'yicha 2026-yilda "favqulodda holat" e'lon qilamiz".²

Prezidentimizning bu Murojaatnomalarida ham korrupsiya, uning salbiy oqibatlari haqida yana bir bor so'z yuritishi bejiz emas.

Zero, bugungi kunda, korrupsiya dunyoning deyarli barcha davlatlari uchun muhim ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolardan biri bo'lib, uning salbiy ta'siri davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy adolat sohalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Aslida, lotin tilidagi "corruptus" so'zi "buzilgan", "vayn qilingan" degan ma'nolarni bildiradi. Korrupsiya deganda, davlat yoki ijtimoiy manfaatlariga zarar yetkazuvchi, shaxsiy yoki guruhni manfaatlar uchun qonunlarga zid faoliyat yoki harakat tushuniladi.

Shu o'rinda, korrupsiyani oldini olishda jamoatchilik nazoratining ahamiyati, jamoatchilik nazorati deganda, fuqarolar va nodavlat tashkilotlarning davlat va uning organlari faoliyati yuzasida ochiq-oydin ma'lumotga ega bolishi va bu faoliyatni nazorat qilishi tushuniladi. Bu tizim korrupsiyani aniqlash va uning oldini olish borasida imkon beradi.

Korrupsiya davlatning asosiy vazifalarini bajarish qobiliyatini zaiflashtiradi, fuqarolarning ishonchini yo'qotadi va barqaror taraqqiyotga to'sqinlik qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 25.01.2020-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Internetdagi manzili.: <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkatmirziyevning-oliy-25-01-2020>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025-y. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

Shu nuqtai nazardan, korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik nazoratini huquqiy asosda tashkil etish va uni takomillashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamoatchilik nazoratining tushunchasi va ahamiyati, jamoatchilik nazorati davlat boshqaruvi ustidan jamiyatning kuzatuv va nazorat funksiyalarini amalga oshirishini anglatadi. Bu fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar), ommaviy axborot vositalari (OAV) va boshqa jamoat institutlari orqali davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatini kuzatish va tahlil qilishni o'z ichiga oladi hamda davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash, davlat xizmatlarini fuqarolar manfaatlariga muvofiq ravishda tashkil etish, huquqbuzarliklar, shu jumladan, korrupsion holatlarni o'z vaqtida aniqlash, davlat organlarining javobgarligi va hisobdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Korrupsiyaga oid ma'lumotlarni ochiqlash, mansabdor shaxslarning qonunga zid xatti-harakatlarini fosh qilish kabi vazifalar mexanizmlarini qonunchilikda mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ham, adolatli sud-huquq tizimi borasidagi islohotlarni izchil davom ettirilishi korrupsiyani oldini olishga, qolaversa inson qadrini yanada yuksalishiga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida, korrupsiya — adolat va qonun ustuvorligiga jiddiy tahdiddir. Unga qarshi kurashish uchun jamiyatda halollik, shaffoflik va qonunga hurmatni shakllantirish zarur. Faqat shu yo'l bilangina adolatli va barqaror jamiyat qurish mumkin.

Bu borada qonunchilik va amaliyot o'rtasidagi uyg'unlik ta'minlangan taqdirda, korrupsiyaning oldini olishda samarali vositaga aylanadi. Har bir fuqaro va tashkilotning ushbu jarayondagi faol ishtiroki davlat boshqaruvi sifatini yaxshilashga hamda adolatli va shaffof jamiyat qurishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.10.2018-y., 03/18/498/2051-son; 06.03.2019-y., 03/19/527/2706-son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-y. 1-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi 2018-yil 12-apreldagi 474-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 13.04.2018. 03/18/474/N^o1062.7.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 27-maydagi 5729-son Qarori. //
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 21.04.2025-yildagi PF-71-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025-yil.
<https://president.uz/uz/lists/view/8834>
7. НИГМАТОВ Р.О. Судебная экспертиза беларуси //судебная экспертиза беларуси Учредители: Государственный комитет судебных экспертиз Республики Беларусь. – №. 2. – С. 83-87.

8. Нигматов Р.О., Шодиев А.А. Жиноят-ижроия қонунчилигида маҳкумлар мажбуриятларини оширишнинг илмий-назарий таҳлили //Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2025. – Т. 4. – №. 9. – С. 73-77.
9. Нигматов Р.О., Шодиев А.А. Жиноят-ижроия қонунчилигида маҳкумлар ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг ўзига хос жиҳатлари: америка қўшма штатлари мисолида илмий-назарий таҳлил //Central Asian Journal of Academic Research. – 2025. – Т. 3. – №. 9. – С. 116-121.
10. Нигматов Р.О., Шодиев А.А. Жиноят-ижроия қонунчилигида маҳкумлар ҳуқуқларини такомиллаштиришнинг илмий-назарий таҳлили //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2025. – Т. 3. – №. 9. – С. 27-31.
11. Нигматов Р.О., Шодиев А.А. Жазони ижро этиш муассасаларида сунъий интеллект: маҳкумларни ахлоқан тузатишнинг замонавий усуллари //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – Т. 2. – №. 9. – С. 75-78.

